

## TARJIMA TARIXIDAN VA UNING HAYOTIMIZDAGI O'RNI

**Usmanova Mukaddam Abdugapparovna**

*Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlatmuzeyi ilmiy xodimi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada tarjima tarixi nima ekanligi, uning yuzaga kelishi dastlabki qilingan tarjimalar va ular kimlar tomonidan amalga oshirilganligi, kelib chiqishi va inson hayotida tutgan o'rni qanchalar muhimligini ko'rib chiqamiz.*

**Аннотация:** *В данной статье мы рассмотрим, что такое история перевода, его происхождение, первые переводы и кто их сделал, их происхождение и насколько важна их роль в жизни человека.*

**Annotation:** *In this article, we will look at what the history of translation is, its origin, the first translations and who made them, their origin and how important their role is in human life*

**Kalit so'zlar:** *tarjima, tarjimon, tarzabon, sivilizatsiya.*

**Ключевые слова:** *перевод, переводчик, цивилизация.*

**Key words:** *translation, translator, civilization.*

Butun dunyo miqyosida turli xalqlarning o'zaro siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy hamkorligi kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda tarjimaning ahamiyati haqida gapirish, suvning inson hayotidagi tutgan o'rni haqida gapirishdek muhimdir. Biz hayotimizni suvsiz tasavvur qilolmaganimiz kabi, tarjimasiz ham turli xalqlarning bir- biri bilan bo'lgan aloqasini, bu aloqasiz esa taraqqiyotni tasavvur qilolmaymiz.

Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida" gi qaroriga muvofiq "Davlat tilidan xorijiy tillarga va xorijiy tillardan davlat tiliga professional tarjima qilish uslubiyotlarini yaratish hamda ushbu yo'nalishda mutaxassislarining malakasini oshirishda ko'maklashish" [1] ni yaqqol misol qilib olishimiz mumkin.

Professor, tarjimashunos olim G'aybulla Salomov ham bejizga "Boshqa xalqlar hayotidan voqif bo'lmaslik g'ofillik va milliy mahdudlikka olib keladi".[2] deya ta'kidlamagan edi. Shuning uchun ham tarjimaga xalqlarni o'zaro bog'laydigan, ularning madaniyatini rivojlantiradigan, hamkorligiga asos bo'ladigan ko'priksifatida qarashimiz mumkin.

Qadimda O'rta Osiyo va Eron xalqlari o'rtasida notiqlik san'ati juda rivojlangan. Notiqlarni esa "tarzabon" deb ataganlar. "Tar"- fors tilida yangi, shirali, tarovatli, nozik, latif kabi ma'nolarni anglatadi. "Zabon" - til degani. Tarzabon – notiq, chiroyli gapiruvchi, so'z ustasi, yangi va o'tkir so'zlarni aytuvchidir. Tarzabonlar chuqur bilim, keng dunyoqarash, notiqlik mahoratiga ega bo'lishdan tashqari, bir necha tillarni ham bilganlar va o'z nutqlarida ulardan foydalanganlar.

“Arablar kirib kelganlaridan keyin ijtimoiy hayot, madaniyat, fan va boshqa sohalarni o‘z ta‘siriga olgani kabi, ko‘pgina so‘zlarni ham o‘zlashtirib, arab tili qoidalariga bo‘ysundirganlar. Jumladan, tarzabon so‘zi ham arabcha talaffuzda “tarjamon” (yoki tarjimon) – ga aylandi. Shundan keyin u arab tilining so‘z yasaliş qonuniga bo‘ysunib, undan yangi ko‘rinish hosil qilgan. Shunday qilib tarjimon – tarzabon so‘zining arabcha tarjimasidir. Tarjima esa tarjimon so‘zidan kelib chiqqan”. [3]

IX-XII asrlarda Turon zaminida ilm-fan, falsafa, tibbiyot, ilohiyot, adabiyot, tarix, folklor uyg‘onib, yangi rivoj yo‘liga chiqdi. Movarounnahrda yetishib chiqqan Muhammad Muso Xorazmiy, Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Qaffol Shoshiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy, Farg‘oniy singari olimlar nafaqat ilm-fan bilan shug‘ullandilar va ularning asarlari tarjima tufayli Yevropa qit‘asiga yangi ilmiy qarashlar, ixtirolar to‘lqinini olib kirdi. Turon o‘lkalaridan chiqqan bu olimlar tarjimalarga, til o‘rganishga, boshqa xalqlar madaniyatlarini o‘zlashtirishga juda katta qiziqish bilan qarardilar. Chunki tarjima orqali fandagi yutuqlarning ko‘lami tobora ko‘payib borishiga zamin yaratdi. Chindan ham, til dunyo adabiyotlarining o‘zaro aloqalarida, madaniyatlarning yetuk tarzda shakllanishida bebaho ko‘prik bo‘la oldi. [4]

O‘zbekistonda tarjimashunoslik maxsus ilm sifatida o‘tgan asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Shuningdek, 20-asr o‘zbek yozuvchilaridan Cho‘lpon, G‘.G‘ulom, Oybek, A.Qahhor, Mirtemir, M. Shayxzoda, M. Ismoiliy, A. Muxtor, Ye. Vohidov, A. Oripov va boshqalar badiiy tarjima sohasida samarali ijod qilganlar. Shundan beri tarjima vaqt o‘tishi bilan rivojlanib kelib hozirda biz tushunadigan tarjimaga aylandi.

Asr oxiriga kelib, bu sohada 10 ga yaqin fan turi, 50 dan ortiq fan nomzodlari yetishib chiqdi. N.Vladimirova, J.Sharipov, S.Salomova, G‘.Salomov, Yu.Pulatov, J.Buronov, A.Abduazizov, Q.Musaev, G.G‘afurova, N.Komilov singari tilshunos olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy tadqiqotlar O‘zbekistonda ham tarjima nazariyasi borasida keng ko‘lamda izlanishlar olib borilganining isbotidir. Ular orasida tarjima nazariyasining lingvistik tamoyillarini yaratishda professor A.V.Fedorov izlanishlarini davom ettirgan professor G‘.Salomovning xizmatlarini alohida ta‘kidlab o‘tish o‘rinlidir. Olimning 1966-yil nashr qilingan “Til va tarjima” monografiyasi O‘zbekistonda tarjima nazariyasi fanining rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shdi. Ayniqsa, olimning 1973-yilda nashr qilingan “Tarjima tarixi”, “Tarjima nazariyasiga kirish”, “Umumiy tarjima nazariyasi asoslari” o‘quv dasturlari respublikamiz oliy o‘quv yurtlarida tarjima nazariyasi kursini o‘qitishda asosiy dasturulamal bo‘lib xizmat qildi. Xullas, professor G‘aybulla Salomovning “Tarjima nazariyasiga kirish” darsligi oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlarida ta‘lim olayotgan talabalar uchun yo‘riqnomaga aylandi”. [5]

Tarjimon mehnatini hech qachon ikkinchi darajali deb tushunmaslik kerak. Uning mehnati yozuvchi mehnati bilan barobar. Nemis faylasufi Gumboldtning “til - faoliyat” degan mashhur aforizmi hammadan ko‘ra ko‘proq tarjimonlarga tegishlidir. Tarjimon

tilni harakatga keltiradi. Uning mehnati tilni faoliyat manbayiga, faoliyatni yesa til manbayiga aylantiradi. Zotan tarjimon mehnati bois tillarnmg xazinalari yangi so'zlar, terminlar, ifodalar, gapning g'aroyib, ilgari ko'rilmagan, sinalmagan sintaktik qurilishlari bilan boyiydi. Tarjimonning ijodiy mehnati bois til yangilanadi. [6]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tarjima insoniyat faoliyatining yeng qadimiy turlaridan biri bo'lib, u tufayli biz insoniyat tarixining barcha tafsilotlarini ochiq-oshkora o'rganamiz. Hech bir xalq o'z qobig'ida, o'z-o'zicha rivojlana olmaydi. U boshqa xalqlarning yutug'i, kamchiligi, tajribalarini o'zlashtirgan holda yuksaladi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun esa albatta tarjima, tarjimashunoslik ilmiga bo'lgan ehtiyojni sezamiz. Tarjima tarixini o'rganish jamiyatda ko'p asrlar ilgari mavjud bo'lgan madaniyat va sivilizatsiyalar haqida bilish imkonini beradi. Hozirgi kunda tarjima biz uchun suv va havodek zarur, chunki ta'lim jarayonida, savdo- sotiq ishlarida, diplomatik munosabatlarda va madaniy aloqalarda tarjimaning ahamiyati muhimdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19- maydagi PQ-5117 qarori.
- 2.G'.Salomov. Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent: "O'qituvchi". 1978.
- 3.E.Ochilov. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (o'quv qo'llanmasi). Toshkent. 2012.
- 4.I. G'ofurov, O.Mo'minov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi. Toshkent. 2012.
5. <https://uz.m.wikipedia.org>.
- 6.I. G'ofurov, O.Mo'minov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi. Toshkent – 2012.
7. <https://arxiv.uz>.